

MOLIYAVIY BARQARORLIK SHARHI

Qisqa tavsif

2025-yil uchun

I. UMUMIY BAHOLASH

2025-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhiga (keying o'rinlarda – sharh) ko'ra, O'zbekistonda moliyaviy sharoitlar nisbatan yengillashdi. Bunga global noaniqliklarning biroz pasaygani, bank sektori ko'rsatkichlarining yaxshilangani, ichki valyuta bozorida ijobiy o'zgarishlar va makroiqtisodiy faollik yordam berdi.

Bank tizimi moliyaviy barqaror va xatarlarni qoplash imkoniyati yuqori holatda shakllanmoqda. Kapital va likvidlik ko'rsatkichlari o'rnatilgan me'yorlardan yuqori, muammoli kreditlar ulushi kamaygan, banklarning daromadliligi esa yaxshilangan. Shu bilan birga, mikroqarzlarni bo'yicha kredit sifati, kiberxatarlar va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq omillar qo'shimcha e'tibor talab qiladi.

Sharhning asosiy xabari: moliyaviy tizim umumiy holatda barqaror, lekin barqarorlikni saqlab qolish uchun kredit sifati, aholining qarz yuki, likvidlik manbalari va global moliyaviy sharoitlar doimiy kuzatib borilishi zarur.

Asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar
2026-yil 1-yanvar holatiga

Ko'rsatkichlar	Qiymat
YalM o'sish	7,7%
Inflyatsiya	7,3%
Muammoli kreditlar ulushi (NPL)	3%
Regulyativ kapitalning monandlilik koeffitsiyenti (CAR)	18,3%
I darajali asosiy kapital monandlilik koeffitsiyenti (CET1)	14,7%
Likvidlikni qoplash me'yori koeffitsiyenti (LCR)	208%
Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti (NSFR)	120%
Aktivlar rentabelligi (ROA)	2,2%
Kapital rentabelligi (ROE)	12,4%
Aholi qarzga xizmat ko'rsatishining daromadga nisbati (DSTI)	37%


Manba: Moliyaviy barqarorlik sharhidan

II. BANK SEKTORI

Bank sektori 2025-yil yakunida barqaror va xatarlarni qoplash imkoniyati yuqori tizim sifatida shakllangan. Banklarning daromadlilik oshgani, depozitlar hajmi kengaygani va muammoli kreditlar kamaygani bank tizimining to'lov qobiliyatini mustahkamladi.

Bank tizimi moliyaviy stress indeksi tarixiy past darajagacha pasaydi: Bu bank tizimida bosim yoki umumiy xavotir belgilarining pasayganini bildiradi. Tizimli shartli talablar tahlili (Systemic CCA) natijasiga ko'ra, tahlil qilingan tizimli ahamiyatga molik banklar defolt ehtimolining oddiy arifmetik o'rtacha qiymati esa **4 foiz** bandga kamayib, **46 foizda** shakllandi. Biroq bu xatarlar butunlay yo'q degani emas, xususan chakana kreditlar ulushi ortib borgan, valyuta kursi o'zgaruvchanligi va mikroqarzlarning sifati alohida kuzatuv talab etadi.

O'zbekiston moliyaviy stress indeksi



Manba: Moliyaviy barqarorlik sharhidan

Kapital ko'rsatkichlari me'yorlardan yuqori: Jami regulyativ kapital monandlilik koeffitsiyenti (CAR) **18,3%**ni, I darajali asosiy kapital monandlilik koeffitsiyenti (CET1) **14,7%**ni tashkil etdi. Bu banklarda kutilmagan yo'qotishlarni qoplash uchun yetarli kapital mavjudligini bildiradi.

Likvidlik holati ham yaxshilangan: Likvidlikni qoplash me'yori koeffitsiyenti (LCR) **208%** va sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti (NSFR) **120%** ni tashkil etgan. Oddiy qilib aytganda, banklar qisqa muddatli pul chiqimlarini qoplash va barqaror moliyalashtirish manbalariga tayangan holda faoliyat yuritish imkoniyatiga ega.

Kredit portfeli sifati yaxshilandi: Muammoli kreditlar ulushi (NPL) **3%**gacha pasaydi. Shu bilan birga, banklar kredit va depozit portfeli bo'yicha dollarizatsiya darajasining pasayishi valyuta kursi o'zgarishlaridan keladigan xatarlarni yumshatdi.

Asosiy xulosa: 2025-yil yakunida bank sektori yetarli kapital va likvidlikka ega bo'lib, muammoli kreditlar ulushining pasayishi hamda daromadlilikning yaxshilanishi tizimning xatarlarga bardoshlilikini mustahkamladi. Shu bilan birga, chakana kreditlar, mikroqarzarlar sifati va valyuta kursi o'zgaruvchanligi bank sektorida doimiy monitoringni talab qiladi.


III. KO'CHMAS MULK BOZORI

Ko'chmas mulk bozorida 2025-yilda narxlar bo'yicha muvozanatga yaqinlashish kuzatildi. Uy-joylarning bozor narxi fundamental narxlar, ya'ni daromadlar, talab, taklif va iqtisodiy omillar bilan izohlanadigan narx darajasi atrofida shakllandi.

Milliy valyuta mustahkamlanishi: 2025-yil yakunida uy-joylarning so'mdagi bozor narxi yillik hisobda **4,8%**ga kamaygan. Biroq milliy valyuta kursining mustahkamlanishi hisobiga xorijiy valyutadagi ekvivalentda uy-joy narxlari **1,5%**ga oshgan.

Aholi daromadi va ipoteka shartlari: Aholi daromadlarining o'sishi va ipoteka shartlarining yengillashishi natijasida aholining uy-joy xarid qilish qobiliyati kuchaydi. Nominal ish haqi **19 foizga** o'sdi, uy-joy xarid qilish qobiliyati indeksi esa **115 foizdan 126 foizgacha** ko'tarildi. Buning natijasida shaxsiy uy-joyga ega bo'lmagan uy xo'jaliklari soni **34,7 mingga** kamaydi.

Ko'chmas mulk bozori omillarining yillik o'zgarishi (2025-yil)



Manba: Moliyaviy barqarorlik sharhidan

Bozor faolligi ortdi: Notarial rasmiylashtirilgan turar joy bilan bog'liq oldi-sotdi shartnomalari **15 foizga** ko'payib, **295,4 mingga** tashkil etdi, shundan **24 foizi** ajratilgan **ipoteka kreditlari** hisobiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, uy-joy narxlari o'sishining ijara haqlari o'sishiga nisbati birdan past darajaga tushdi, bu bozor ishtirokchilari aktivlar narxining o'sishiga emas, balki barqaror ijara daromadiga tayanuvchi ehtiyotkorona sarmoyaga o'tayotganidan dalolat beradi.

Asosiy xulosa: Ko'chmas mulk bozorida qizish belgilari susaygan, bozor narxlari shakllanishida fundamental omillar ta'siri ortgan. Shu bilan birga, ko'chmas mulk bozorida bozor va fundamental narxlarning shakllanishi, uy-joy narxlarining aholi daromadlariga nisbati doimiy kuzatuvda qolishi kerak.


IV. UY XO'JALIGI SEKTORI

Uy xo'jaliklari bo'yicha umumiy holat ijobiy baholanadi. Aholi daromadlarining o'sishi va qarz oluvchilarga nisbatan makroprudensial choralarning qat'iylashishi natijasida jismoniy shaxslarning umumiy qarz yuki biroz kamaygan.

O'rtacha DSTI ko'rsatkichi pasaydi: Qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga nisbati (DSTI) bo'yicha talablarning kuchaytirilishi uy xo'jaliklarining qarz yuki darajasini pasaytirdi. Bankdan kredit olgan aholining barcha bank va bankdan tashqari majburiyatlari hisobga olingan o'rtacha DSTI ko'rsatkichi **38%** dan **37%** ga tushdi. DSTI **50%** va **undan past** bo'lgan qarz oluvchilar ulushi oshgani kredit portfeli barqarorligi uchun ijobiy signal hisoblanadi.

Ipoteka va avtokreditlarda qarz yuki sezilarli pasaydi: Ipoteka segmentida o'rtacha DSTI **22 foiz** bandga pasayib **49 foizni**, avtokreditlar bo'yicha esa **60 foizdan 37 foizgacha** kamaydi. Kredit summasining garov qiymatiga nisbati (LTV) talblarining joriy etilishi ipoteka va avtokreditlarning garov bilan ta'minlanganlik darajasini yaxshiladi.

Bankdan qarzдор jismoniy shaxslarning bankdan tashqari jami majburiyatlarini inobatga olgan holdagi DSTI o'rtachasi



Manba: Moliyaviy barqarorlik sharhidan

Mikroqarzarlar segmenti alohida e'tibor talab qiladi: Chakana kreditlashda yuqori faollik saqlanib qolmoqda va alohida e'tibor talab etadi. Mikroqarzarlar bo'yicha muammoli kreditlarning sifat tarkibi yomonlashdi, xususan o'rtacha DSTI ko'rsatkichi **37** foizdan **40** foizgacha ko'tarildi, bitta qarzdorga to'g'ri keladigan shartnomalar soni esa **1,7** tadan **1,9** taga oshdi. Mikroqarz oluvchilar soni qariyb **2,7 mln** kishiga yetgan. Mikroqarzarlar qoldig'i **48,8 trln** so'mga yetib, jami kredit portfelining **8 foizini** tashkil etdi.

Asosiy xulosa: 2025-yilda uy xo'jaliklari sektorida umumiy qarz yuki pasayib, ipoteka va avtokreditlar bo'yicha xatarlar nisbatan yumshadi. Bu aholining daromadlari o'sishi hamda qarz oluvchilarga yo'naltirilgan choralarning qat'iylashtirilgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, mikroqarzarlar bozorida yuqori faollik, bitta qarzdorga to'g'ri keladigan shartnomalar sonining ortishi va mikroqarzarlar bo'yicha qarz yukining oshishi ushbu segmentda kredit sifati va aholining to'lov qobiliyatini doimiy monitoring qilish zarurligini ko'rsatadi.

V. BANK SEKTORI BO'YICHA MAKRO STRESS-TEST


Makro stress-test bank tizimi iqtisodiyotda juda salbiy, lekin ehtimoli past bo'lgan vaziyat yuz bersa ham, jiddiy xatarlarga qanchalik bardosh bera olishini baholaydi. Bu prognoz emas, balki xatarli sharoitda bank tizimining mustahkamligini tekshiruvchi ssenariy tahlildir.

Stress-test ikki ssenariy asosida o'tkazildi: joriy makroiqtisodiy tendensiyalar saqlanib qolishini nazarda tutuvchi asosiy ssenariy hamda makromoliyaviy shartlarning qat'iylashishi va xavf omillarining kuchayishini hisobga oluvchi xatarli ssenariy. Xatarlarni hisobga olgan holdagi iqtisodiy o'sish (GaR) modeli natijasiga ko'ra, xatarli ssenariyda 2026-yil yakunida real YalM o'sish sur'ati manfiy **0,7 foizgacha** pasayishi mumkinligi qayd etildi.

Asosiy ssenariyda banklarning kapital ko'rsatkichlari o'sishi mumkin. Xatarli ssenariyda esa kreditlar bo'yicha yo'qotishlar, operatsion xarajatlar va tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning ko'payishi kapital ko'rsatkichlariga bosim qiladi.

Stress-test natijasiga ko'ra: Xatarli ssenariyda 2028-yil yakunida I darajali asosiy kapital monandlilik ko'effitsiyenti (CET1) **5,6%** gacha, jami regulativ kapital monandlilik ko'effitsiyenti **6,8%** gacha pasayishi mumkin. Bu ayrim banklar minimal kapital talablariga yaqinlashishi yoki undan pastga tushishi mumkinligini anglatadi. Bunday holatda banklar tomonidan minimal talablarni bajarish uchun yaratilishi zarur bo'lgan qo'shimcha kapital miqdori YalMning **4,6 foizini** tashkil etishi mumkin.

Kapital monandlilik koeffitsienti – stress-test natijalari



Manba: Moliyaviy barqarorlik sharhidan

Likvidlik stress-testi natijalari: Xatarli ssenariy bo'yicha sof pul kirimi bank tizimi bo'yicha musbat holatda saqlanib qolishini ko'rsatdi. Aktivlar va majburiyatlar muddatlari orasidagi nomutanosiblik darajasi yanada yaxshilandi. Ayrim banklarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfiy sof pul kirimi bank tizimi yuqori likvidli aktivlarining **9 foizini**, jami aktivlarning esa **2 foizini** tashkil etadi, bu tizim miqyosidagi likvidlik xatarini bartaraf etish uchun yetarli.

Asosiy xulosa: bank tizimi bazaviy holatda barqaror, ammo keskin salbiy ssenariyda kapital va likvidlikning banklar kesimida yetarliligi alohida kuzatilishi kerak.

VI. MAKROPRUDENSIAL SIYOSAT

2025-yilda makroprudensial siyosat vositalari Basel III standartlariga mos ravishda takomillashtirildi. Bu moliyaviy tizimda xatarlar yig'ilib qolishining oldini olish, banklarning to'lov qobiliyatini mustahkamlash hamda aholi qarz yuki ortishini cheklashga qaratilgan.

Kapital buferlari joriy etildi: kapital konservatsiya buferi **2,5%**, kontrsiklik kapital buferi **1,5%**, tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital bufer **1%** etib belgilandi. 2026-yil boshida banklar buferlarni inobatga olgan holda minimal kapital talablariga to'liq javob bermoqda. Xususan, I darajali asosiy kapital bo'yicha minimal talab kapital buferlarini inobatga olganda tizimli ahamiyatga molik banklar uchun **9,5 foizni**, boshqa banklar uchun esa **8,5 foizni** tashkil etadi.

Qarz oluvchilarga yo'naltirilgan vositalar kuchaytirildi: barcha kredit turlari bo'yicha qarzgga xizmat ko'rsatishining daromadga nisbati (DSTI) talabi **50%** gacha qat'iyashtirildi, avtokreditlar uchun kredit summasining garov qiymatiga nisbati (LTV) **75%**, ipoteka kreditlari uchun **80-85%** darajasida belgilandi. 2026-yil 1-martdan qarzning daromadga nisbati bo'yicha bevosita talab, o'rtacha oylik daromadini aniqlash imkoniyati mavjud qarz oluvchilar uchun **8 barobar**, tegishli tartibda aniqlash imkoniyati mavjud bo'lmaganda esa **5 barobar** miqdorida o'rnatildi.

Kredit portfeli diversifikatsiyasi: Kredit portfeli haddan tashqari bir yo'nalishda to'planib qolmasligi uchun mikroqarzlar, overdraftlar va kredit kartalari miqdori kredit qoldig'ining eng ko'pi bilan **25 foizini** tashkil etishi mumkinligi belgilandi. Bunda banklar faoliyatida keskin cheklovlarining oldini olish maqsadida talablarga mos bo'lmagan banklarga kredit portfeli tarkibini 2028-yil yakuniga qadar bosqichma-bosqich moslashtirish imkoniyati berildi.

Asosiy xulosa: 2025-yilda makroprudensial siyosat bank tizimining to'lov qobiliyatini mustahkamlash, aholi qarz yuki ortishini cheklash va kredit portfelida xatarlarni haddan tashqari to'planib qolishining oldini olishga qaratildi. Basel III standartlariga mos kapital buferlari, DSTI va LTV bo'yicha talablar hamda ayrim chakana kredit turlariga konsentratsiya cheklovlarining joriy etilishi moliyaviy tizim barqarorligini qo'llab-quvvatlovchi muhim himoya mexanizmlarini shakllantirdi. Shu bilan birga, ushbu talablarning banklar kredit faolligi, aholining kreditlardan foydalanish imkoniyati va kredit portfeli sifatiga ta'siri doimiy baholab borilishi zarur.

"Izoh: makroprudensial siyosat - bu moliyaviy tizimdagi tizimli xatarlarni cheklash va ularning salbiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. U alohida bankni emas, butun moliya tizimining barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shishni ko'zlaydi."

VII. XATARLAR VA YENGILLASHTIRUVCHI CHORALAR

O'zbekiston moliyaviy barqarorligi uchun asosiy xatarlar tashqi va ichki omillar bilan bog'liq.

Geosiyosiy beqarorliklar ta'sirida global moliyaviy sharoitlarning qat'iylashishi. Bu mamlakatga xalqaro moliya bozorlaridan mablag'larni jalb etishni qiyinlashtirishi va tashqi qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarini oshirishi, xalqaro kapital oqimini sekinlashtirishi hamda tashqi savdo kanallari orqali ichki inflyatsion bosimni kuchaytirishi mumkin.

Mikroqarzlar bo'yicha kredit xatari, kiberxatarlar va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavotirlarning ortishi. Mikroqarzlar bo'yicha qarz yukining oshishi banklarda kredit yo'qotishlari ehtimolini kuchaytirishi mumkin. Shunigdek, raqamlashtirish jarayonlarining kengaygani sari kiberxavfsizlik masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xatarlarni yengillashtiruvchi choralar sifatida budget intizomini saqlash, kapital bozorini rivojlantirish, investitsion muhitni yaxshilash, eksport va logistika yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish, kredit scoring tizimini kuchaytirish, shubhali tranzaksiyalarni sun'iy intellekt orqali kuzatish va iqlim stress-testlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Xatar	Qisqa izoh	Yengillashtiruvchi choralar
Global moliyaviy sharoitlarning qat'iyilashishi	Xalqaro moliya bozorlaridan mablag'lar jalb etishni qiyinlashtirishi mumkin	Budjet intizomi, ichki kapital bozorini rivojlantirish, investitsion muhitni yaxshilash
Mikroqarzarlar bo'yicha kredit xatari	Mikroqarzarlar bo'yicha muammoli kreditlarning ortib borishi hamda mikroqarz oluvchilar qarz yukining oshishi kredit xatarini yuqorilashiga va natijada kredit yo'qotishlarining ko'payishiga olib kelishi mumkin	Qarz yuki talablarini qat'iy qo'llash, minimal daromad mezonlari, kredit skoringini takomillashtirish
Kiber xatarlar	Raqamli xizmatlar kengaygani sari kiber xatarlarning sodir bo'lishi ham oshishi mumkin	Sun'iy intellekt asosida monitoring, shubhali tranzaksiyalar bo'yicha cheklovlar, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish
Iqlim o'zgarishi	Iqlim o'zgarishi natijasida kelib chiqadigan xavflar iqtisodiyot va bank aktivlariga ta'sir qilishi mumkin	Iqlim stress-testlari, zaif tarmoqlar bo'yicha kapital/likvidlik talablarini qayta ko'rib chiqish, yashil loyihalarni rag'batlantirish

VIII. YAKUNIY XULOSA

2025-yil yakunida O'zbekistonning moliyaviy sharoitlarida yengillashish kuzatildi. Global noaniqliklarning bir oz pasayishi, valyuta bozori hamda makroiqtisodiy holatdagi ijobiy o'zgarishlar mamlakat moliyaviy barqarorligini mustahkamladi. Bank tizimi yuqori daromadlilik, mustahkam kapital bazasi va yaxshilangan likvidlik bilan tavsiflanib, Bazel III standartlariga javob bermoqda.

Uy xo'jaligi sektorida qarz yuki yengillashti, ko'chmas mulk bozorida narxlar fundamental qiymati atrofida shakllandi va aholining uy-joy sotib olish qobiliyati kuchaydi. Shu bilan birga, chakana kreditlashdagi yuqori faollik, ayniqsa mikroqarzar segmentidagi qarz yukining ortishi va kreditlar sifatining yomonlashishi, doimiy va diqqatli monitoringni talab etadi.

Makro stress-test natijalari bank tizimining bardoshlilikini tasdiqladi: garchi xatarli ssenariyda kapital ko'rsatkichlari belgilangan minimal talablardan pastga tushishi mumkin bo'lsa-da, likvidlik holati barqaror saqlanib qolmoqda. Bazel III asosida takomillashtirilgan makroprudensial siyosat tizimli xatarlarni yumshatishga xizmat qilmoqda. Markaziy bank O'zbekiston moliyaviy barqarorligi uchun asosiy xatarlarni doimiy kuzatib borib, mamlakat moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha zarur choralarni ko'rishda davom etadi.